



KORXONALARNING INVESTITSION SALOHİYATINI MOLİYAVIY BARQARORLIK ORQALI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Irgashev Aziz Abduqayumovich

"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati

ORCID: 0000-0001-4434-3102

aziz.irgashev09@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada korxonalarning investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va amaliy mexanizmlari tahlil qilinadi. Xalqaro tajribalar hamda O'zbekiston korxonalari misolida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillar aniqlanib, kapital tuzilmasi, likvidlik, risk boshqaruvi va moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi bo'yicha strategik takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, investitsiya faoliyati, kapital tuzilmasi, likvidlik, risklarni boshqarish, moliyaviy mexanizmlar.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ ЧЕРЕЗ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ

Иргашев Азиз Абдуқяумович

Акционерное общество «Узметкомбинат»

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы, этапы развития и практические механизмы обеспечения финансовой устойчивости в инвестиционной деятельности предприятий. На основе международного опыта и анализа деятельности узбекских предприятий выявлены ключевые факторы, влияющие на финансовую устойчивость, и разработаны стратегические предложения по оптимизации структуры капитала, обеспечению ликвидности, управлению рисками и диверсификации источников финансирования.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, инвестиционная деятельность, структура капитала, ликвидность, управление рисками, финансовые механизмы.

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ENTERPRISE INVESTMENT POTENTIAL THROUGH FINANCIAL STABILITY

Irgashev Aziz Abduqayumovich

"Uzmetkombinat" Joint Stock Company

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations, developmental stages, and practical mechanisms for ensuring financial stability in corporate investment activities. Based on international experience and the case of Uzbek enterprises, key factors affecting financial resilience are identified, and strategic recommendations are developed regarding capital structure optimization, liquidity management, risk mitigation, and diversification of funding sources.

Keywords: financial stability, investment activity, capital structure, liquidity, risk management, financial mechanisms.

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning raqobatbardoshligini saqlab qolish va uni uzoq muddatli rivojlanish traektoriyasiga yo'naltirishda investitsiya faoliyati muhim rol o'ynaydi. Kapital qo'yilmalar orqali ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, yangi mahsulotlar ishlab chiqish, eksport salohiyatini oshirish va tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, investitsiya qarorlarining to'g'ri qabul qilinishi va ularning samarali moliyalashtirilishi bevosita korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasiga bog'liqdir. Zero, moliyaviy barqarorlik – bu korxonaning investitsiyaviy tashabbuslarini amalga oshirishdagi tayanch omil bo'lib, uni ta'minlash orqali investitsiya faoliyatining tavakkal darajasi kamayadi, kapitaldan foydalanish samaradorligi oshadi va moliyaviy muvozanat mustahkamlanadi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi, global geoiqtisodiy muhitdagi o'zgarishlar, inflyatsion bosim va moliyaviy resurslar tanqisligi sharoitida korxonalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalasi yanada dolzarblashmoqda. Bu, ayniqsa, o'sib borayotgan investitsion ehtiyojlar, kredit manbalarining cheklanganligi va moliyaviy vositalar bozorining yetarlicha rivojlanmaganligi sharoitida sezilarli ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, moliyaviy barqarorlikni saqlash korxonaning nafaqat ichki qaror qabul qilish tizimi, balki tashqi moliyaviy muhit – banklar, investorlar, davlat moliyaviy institutlari bilan samarali hamkorlikni talab etadi.

Moliyaviy barqarorlik deganda, korxonaning o'zining moliyaviy majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajarish, o'sish va kengayish imkoniyatlarini moliyalashtirishga layoqatliligi, aktiv va passivlarning strukturaviy muvozanatini saqlab turish qobiliyati tushuniladi. Ushbu barqarorlikning buzilishi esa investitsiyaviy xavfning ortishiga, kredit reytingining pasayishiga, hamkorlik resurslarining qisqarishiga va eng asosiysi – korxonaning bankrotlik xavfiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy menejmentda moliyaviy barqarorlikni strategik boshqarish yondashuvi keng qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir vaqtda, investitsiyaviy faollikning oshirilishi bilan birga, moliyaviy risklarni minimallashtirish, kapitallashtirish darajasini muvozanatlash va moliyaviy turg'unlikni kafolatlaydigan mexanizmlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, makroiqtisodiy muvozanat, moliyaviy intizom, kredit resurslaridan samarali foydalanish va investitsion xavflarning oldini olish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish bugungi islohotlarning ustuvor yo'nalishidir.

Adabiyotlar sharhi.

Korxonalarning investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash masalasi global iqtisodiy jarayonlarda doimo dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. Bunda moliyaviy barqarorlikni saqlash - investitsion jarayonlarning uzluksizligi, kapitallashtirish strategiyasining samaradorligi, likvidlik darajasi va risklarni boshqarish tizimlarining mukammalligi bilan bevosita bog'liqdir. Moliyaviy barqarorlik nazariyasi dastlab Modigliani va Miller (1958) tomonidan ishlab chiqilgan kapital tuzilmasi modelida asoslab berilgan. Unga ko'ra, korxonaning kapitallashuvi tarkibi (qarz va o'z mablag'lari nisbati) uning qiymatiga ta'sir ko'rsatmaydi, biroq real iqtisodiy sharoitlarda soliq imtiyozlari, bankrotlik xavfi va agentlik xarajatlari ushbu neytrallik farazini inkor etadi. Keyinchalik Myers va Majluf (1984) o'zlarining "Pecking Order Theory" modelida kompaniyalar moliyalashtirishda avval ichki resurslardan, so'ngra qarzdan va nihoyat aksiya emissiyasidan foydalanishini asoslashdi.

Moliyaviy barqarorlikni baholashning amaliy vositalari ichida Altman (1968) tomonidan ishlab chiqilgan Z-score modeli keng qo'llaniladi. Ushbu model moliyaviy ko'rsatkichlar asosida korxonaning moliyaviy holatini bashorat qilishga imkon beradi va investitsiya xavfini baholashda universal mezon sifatida tan olingan.

Moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha World Bank (2021) hisobotida esa makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy vositalarning xilma-xilligi, kredit infratuzilmasining rivojlanganligi va tahliliy tizimlarning mavjudligi asosiy omillar sifatida ta'kidlanadi. Shuningdek, IMF (2020) hisobotida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda stress-testlar, pul oqimi prognozlari va foiz stavkalari xavfini baholovchi indikatorlarning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Korxona darajasida olib borilgan tadqiqotlarda moliyaviy strategiya, naqd pul oqimlarini rejalashtirish, qarz tuzilmasining diversifikatsiyasi va foyda marjalarining barqarorligi moliyaviy barqarorlikni belgilovchi asosiy omillar sifatida tasdiqlanadi (Ross, Westerfield, & other, 2008). Xususan, ilg'or xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, yirik korxonalar investitsiya faoliyatida moliyaviy monitoring tizimlarini joriy etgan, kichik va o'rta biznes esa davlat kafolatlari va lizing mexanizmlaridan keng foydalanmoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning investitsiya faoliyati samaradorligi ularning moliyaviy barqarorligiga bevosita bog'liq bo'lib, ushbu barqarorlikni ta'minlashda qarz va o'z kapitali nisbatining optimal darajada saqlanishi, likvidlikni boshqarish, rentabellik ko'rsatkichlarining barqarorligi va moliyaviy xavflarni minimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Korxonalar investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlik mexanizmlarining rivojlanish bosqichlari

Bosqich	Yillar	Asosiy xarakteristika	Moliyaviy barqarorlikka ta'siri
I bosqich	1991–1996-yillar	Bozor iqtisodiyotiga o'tish boshlanib, korxonalarga investitsion faoliyat yuritish bo'yicha huquqiy asoslar shakllandi. Kapital xususiylashtirildi.	Moliyaviy barqarorlik mexanizmlari sust; o'zini-o'zi moliyalashtirish ustun; risklar yuqori.
II bosqich	1997–2005-yillar	Nomarkazlashtirilgan investitsiya faoliyatiga o'tilib, korxonalar moliyaviy mustaqillik asosida investitsiya qarorlarini qabul qilishni boshladi.	Tashqi moliyalashtirish manbalari paydo bo'ldi; tijorat banklari faol ishtirok eta boshladi.
III bosqich	2006–2010-yillar	Mulkchilik shakllaridan qat'i nazar investitsiyalarning erkinlashtirilishi; erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi.	Davlat va xususiy kapitalning integratsiyasi kuchaydi; moliyaviy monitoring mexanizmlari joriy etildi.
IV bosqich	2011–2016-yillar	Innovatsion rivojlanish siyosati doirasida ilmiy-texnik baza va texnologik modernizatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalar kuchaydi.	Kapital strukturasini diversifikatsiyalash boshlandi; uzoq muddatli barqarorlik tamoyillari shakllana boshladi.
V bosqich	2017–hozirgi vaqtgacha	Investitsiya muhiti erkinlashdi; xorijiy investitsiyalar faollashdi; qayta ishlab chiqarish va eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarish kengaydi.	Innovatsion-moliyaviy boshqaruv vositalari joriy etilmoqda; risklarni boshqarish va kapitallashtirish tizimi kuchaymoqda.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

1-jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda korxonalarning investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari bosqichma-bosqich va evolyutsion tarzda rivojlanib kelmoqda. Dastlabki bosqichlarda moliyaviy barqarorlik asosan o'zini-o'zi moliyalashtirishga asoslangan bo'lsa, keyingi yillarda moliyalashtirish manbalarining

diversifikatsiyasi, bank tizimi faoliyati va davlat-xususiy sheriklik asosida barqarorlikka erishish mexanizmlari shakllangan. Ayniqsa, 2017-yildan so'ng investitsiya muhiti erkinlashgani, innovatsion-moliyaviy boshqaruv vositalari joriy etilgani moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim burilish bosqichi bo'ldi. Bu esa zamonaviy korxonalar uchun integratsiyalashgan moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

2-jadval

Korxonalarning investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari

Mexanizm nomi	Mazmuni va vazifasi	Amaliy ahamiyati
1. Kapital tuzilmasini optimallashtirish	Qarz va o'z mablag'lari nisbatini muvozanatlashtirish orqali moliyaviy mustaqillikni oshirish.	Qarzdorlik xavfini kamaytiradi, investorlar ishonchini mustahkamlaydi.
2. Naqd pul oqimlarini boshqarish	Investitsion loyihalar doirasida kirim-chiqimlar balansini rejalashtirish, kassalik uzilishlarni oldini olish.	Likvidlikni ta'minlaydi, qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini o'z vaqtida bajarishga yordam beradi.
3. Moliyaviy risklarni boshqarish tizimi	Valyuta, foiz stavkalari va bozor risklarini identifikatsiya qilish, sug'urtalash va hedj qilish vositalaridan foydalanish.	Kutilmagan moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish imkonini beradi.
4. Rentabellik monitoringi	Investitsiya kiritmalari samaradorligini doimiy baholab borish (NPV, IRR, ROE, ROA koeffitsientlari orqali).	Investitsiya qarorlarining asoslanganligini oshiradi va foydador loyihalarga ustuvorlik beradi.
5. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish	Bank kreditlari, davlat kafolatlari, fond bozori vositalari, leasing va grantlar kabi alternativ manbalardan kompleks foydalanish.	Moliyaviy mustaqillik va barqarorlikni kuchaytiradi, moliyaviy manbalarga qaramlikni kamaytiradi.
6. Moliyaviy tahlil va hisobot standartlari	IFRS, MCFO, audit va buxgalteriya standartlariga mos ravishda hisobotlar tayyorlash va tahlil qilish.	Investorlar va kreditorlar uchun shaffoflikni oshiradi, ishonchli qaror qabul qilishga asos yaratadi.
7. Strategik budjetlashtirish va investitsiya rejalashtirish	Uzluksiz investitsiya ehtiyojlarini aniqlash, ustuvor loyihalarni moliyaviy jihatdan rejalashtirish.	Resurslarni samarali taqsimlash va moliyaviy intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi.
8. Raqamli moliyaviy boshqaruv texnologiyalari	ERP, CRM, BI tizimlari orqali moliyaviy oqimlar, balans, rentabellik va risklar monitoringi.	Tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi, real vaqtli moliyaviy nazoratni ta'minlaydi.

Manba: muallif tomonidan tayyorlandi.

Korxonalarning investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash ko'p qirrali va o'zaro bog'liq mexanizmlarni talab etadi. Kapital tuzilmasini muvozanatlash, likvidlikni boshqarish, risklarni aniqlash va moliyaviy tahlil vositalaridan samarali foydalanish orqali korxonalarda investitsiyalarning uzluksizligi va samaradorligi ta'minlanadi. Bu mexanizmlarning kompleks qo'llanilishi nafaqat moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi, balki investitsion jozibadorlikni oshiradi.

Xulosa va takliflar.

Korxonalarning investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun quyidagi kompleks va strategik takliflarni ilgari surish mumkin: birinchidan, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur, bu esa bank kreditlaridan tashqari fond bozori

vositalari, davlat kafolatlari, leasing, grant va obligatsiyalardan foydalanishni kengaytirishni taqozo etadi. Ikkinchidan, moliyaviy xavflarni baholovchi va boshqaruvchi tizimlar – xususan, stress-testlar, real vaqtli pul oqimlari monitoringi, valyuta va foiz risklari bo'yicha hedj strategiyalarini joriy etish tavsiya etiladi. Uchinchidan, korxonalarda moliyaviy ko'rsatkichlarni muntazam monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilishi lozim; bunda rentabellik, likvidlik va qarzdorlik indikatorlari asosida investitsion holat baholanadi. To'rtinchidan, korxonalarining ichki moliyaviy boshqaruv salohiyatini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari – ERP, CRM va moliyaviy tahlil modellarini joriy etish dolzarbdir. Beshinchidan, davlat darajasida moliyaviy barqarorlikni rag'batlantirishga qaratilgan fiskal va institutsional mexanizmlar – soliq imtiyozlari, kredit subsidiyalari va kafolat fondlari orqali moliyaviy xavflarni yengillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, korxonalarining investitsiya faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash – bu faqat buxgalteriya balansining muvozanatli bo'lishi emas, balki kompleks va strategik yondashuvlarni talab etadigan ko'p komponentli tizimdir. Bunda kapital tuzilmasining maqbulligi, likvidlikni saqlash, xavflarni boshqarish, moliyaviy monitoring va rejalashtirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy barqarorlik korxonalar uchun nafaqat investitsion salohiyatni ro'yobga chiqarish vositasi, balki ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligi, moliyaviy mustaqilligi va iqtisodiyotdagi faol ishtirokini ta'minlovchi asosiy strategik omildir. Shu bois, investitsiya siyosatini ishlab chiqishda moliyaviy barqarorlikni asosiy ustuvorliklardan biri sifatida belgilash zarur.

Adabiyotlar /Jumepamypa/Reference:

Altman, E. I. (1968). *Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy*. *The Journal of Finance*, 23(4), 589–609.

International Monetary Fund. (2020). *Financial Soundness Indicators Compilation Guide*. Washington, DC: IMF.

Modigliani, F., & Miller, M. H. (1958). *The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment*. *The American Economic Review*, 48(3), 261–297.

Myers, S. C., & Majluf, N. S. (1984). *Corporate financing and investment decisions when firms have information that investors do not have*. *Journal of Financial Economics*, 13(2), 187–221.

Ross, S. A., Westerfield, R. W., & Jordan, B. D. (2008). *Fundamentals of Corporate Finance*. McGraw-Hill Education.

World Bank. (2021). *Global Financial Development Report: Financial Inclusion*. Washington, DC.